

**YETIM VA OTA-ONA QARAMOG'ISIZ QOLGAN BOLALARNI
IJTIMOIY HIMOYALASH**

Samarqand davlat universiteti Kattaqo'rg'on talabasi

Luqmonov O'ralxon Mashrab o'g'li

Samarqand davlat universiteti Kattaqo'rg'on talabasi

Abdurasulova Zulayho Xudaynazarovna

Kalit so'zlar: *Ijtimoiy ishchi, yetim bolalar, ota-ona qaramog'isiz qolgan bolalar, abilatsion va reablitatsion choralari, patronat uylari, shelter, biologik yetimlik, ijtimoiy yetimlik, Paradoks.*

Annotatsiya: *Yetim va ota-ona qaramog'isiz qolgan bolalarga yordam ko'rsatish davlat ijtimoiy siyosatining eng muhim yo'nalishi hisoblanadi. Bugungi kunda jamiyatning asosiy vazifasi - ularni to'laqonli, sog'lom fuqarolar etib voyaga yetkazish, ularga keyinchalik jamiyatda foydasi tegadigan sog'lom shaxs bo'lib yetishish uchun harakat qilmoqda.*

Kirish. Davlat ijtimoiy himoya tizimining birlamchi subekti sifatida aholining turli qatlamlarini istisnosiz qamrab oladi. Jumladan, yetim bolalar, "ijtimoiy yetim" yoki ota-ona qaramog'isiz qolgan bolalar davlat ijtimoiy siyosatining diqqat markazida turadi. Yetim bolalar–ota-onasi yoki ulardan biri o'lgan 18yoshga to'lmagan bolalar bo'lsa, "sotsial yetimlik" yoki ota-ona qarovsiz qolgan bolalar esa–ota-onalik huquqidan mahrum etilganligi, layoqatsiz deb topilganligi, davolash muassasalarida bo'lganligi, yoki boshqa sabablar bois ota-onasining ikkalasi yoki birining vasiyligidan mahrum 18yoshgacha bo'lgan bolalardir. Bu kabi bolalar davlatning tegishli organlari va tashkilotlari tomonidan ijtimoiy va balog'at yoshiga yetgunga qadar ular uchun yaratilgan maxsus institutsional muassasalarga joylashtiriladi. O'zbekiston Respublikasi BMTning "Bola huquqlari to'g'risidagi Konvensiya"ni 1992-yilda ratifikatsiya qilgach, jahonning yetakchi davlatlari qatorida o'z zimmasiga

bola farovonligi uchun zarur hisoblangan qonuniy, ma`muriy, ijtimoiy va ma`rifiy chora-tadbirlarni ko`rishi majburiyatini oldi. Ushbu Konvensiyaga mutanosib tarzda O`zbekiston Respublikasining asosiy qonuni hisoblanuvchi Konstitutsiyaning 45-moddasida bolalar manfaatlari davlat himoyasida ekanligi e`tirof etilgan. Ushbu qonunchilik hujjatlari qatorida mustaqillik yillarida bolalar manfaatlari muhofazasi yo`lida qator me`yoriy hujjatlar ishlab chiqildi. Xususan, O`zbekiston Respublikasi “Bola huquqlari kafolatlari to`g`risida”gi Qonuni, O`zbekiston Respublikasi “O`zbekiston Respublikasida yoshlarga oid davlat siyosatining asoslari to`g`risida”gi Qonuni, O`zbekiston Respublikasi “Voyaga yetmaganlar o`rtasida nazoratsizlik va huquqbuzarliklarning profilaktikasi to`g`risida”gi Qonuni, O`zbekiston Respublikasi “Vasiylik va homiylik to`g`risida”gi Qonuni shular jumlasidandir.

Sotsiolog E.Zaitov yetim bolalar va ota-ona qaramog`isiz qolgan bolalarni oilaviy hamda bolalar muassasalariga joylashtirish tartibi va shakllarini aniq belgilash, ularni davlat-xususiy sheriklik asosida tashkil etilgan nodavlat oilaviy muassasalarga joylashtirish va bolalarga zaruriyat ijtimoiy kasbiy ko`nikmalar shakllantirib borilishi asoslab bergan.

Jamiyat o`z tarixiy davrlari davomida ota-onaning vafoti yetimlikning asosiy sababi hisolanib kelgan. Ammo, XX asrning ikkinchi yarmi va XXI asr boshida dunyo miqyosida sodir bo`layotgan globallashuv, modernizatsiyalashuv kabi jarayonlar nafaqat ijtimoiy-iqtisodiy, balki, ijtimoiy-ma`naviy hamda axloqiy qadriyatlarni parchalanishi kabi sotsial deformatsiyalarga (lot. *deformatio* –buzilishlar*) sabab bo`ldi. Shu o`rinda, bunday sotsial deformatsiyalar ijtimoiy ojiz qatlamlar taqdirida izsiz ketmaydigan ijtimoiy ofatlarga olib sabab bo`ldi. Xususan, G`arb sotsiologlari ham mazkur qarashlarni qo`lladilar. Shu o`rinda, E.Dyurkgeym ko`rsatganidek, jamiyatda sodir bo`layotgan transformatsiyalar ijtimoiy tuzilma faoliyatini izdan chiqarishi va turli salbiy anomaliyalarga olib kelishi mumkin. Charlz Kuli fikri bilan aytganda, ayrim kishilarning hulq-atvori yoki xarakteri aksariyat ko`pchilik tomonidan me`yor sifatida qabul qilingan namuna yoki darajadan yaqqol

pastligi yoki nomutanosibliği nazarda tutiladi. Uning fikricha, sotsial omillarning o`zgartirish orqali insonni o`zgartirishga harakat qilish mumkin. Oilalardagi bunday ijtimoiy sabablarni T.Parsons o`rinli ta`riflaydi¹ va “Er-xotin va voyaga yetmagan bolalardan iborat oila jamiyatning asosiy ijtimoiy moslashishni osonlashtiradigan kasbiy va turli xil hayotiy ko`nikmalarni singdirishdir. Mazkur maqolada shunday bolalarga hayotda o`z o`rinlarini topishlari uchun bolalar bilan ijtimoiy ishda kasbiy axloq kabi masalalar yoritilgan.

Yurtimizda ”YETIM BOLALAR VA OTA-ONA QARAMOG`IDAN MAHRUM BO`LGAN BOLALARNI JOYLASHTIRISHNING MUQOBIL SHAKLLARINI TANLASH, OILA INSTITUTINI MUSTAHKAMLASH HAMDA IJTIMOYIY YETIMLIKNING OLDINI OLISH TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH CHORA-TADBIRLARI TO`G`RISIDA” qarorida

“Bola huquqlarining kafolatlari to`g`risida”gi

O`zbekiston Respublikasi Qonuniga muvofiq ijtimoiy himoyaga muhtoj bolalarni qo`llab-quvvatlash tizimini yanada kuchaytirish va O`zbekiston Respublikasi Prezidentining “O`zbekiston Respublikasida oila institutini mustahkamlash konsepsiyasini tasdiqlash to`g`risida” 2018-yil 27-iyundagi PQ-3808-son hamda “Yetim bolalar va ota-onasining qaramog`idan mahrum bo`lgan bolalarni ijtimoiy himoya qilishni kuchaytirishga oid qo`shimcha chora-tadbirlar to`g`risida” 2019-yil 11-fevraldagi PQ-4185-son qarorlari ijrosini ta`minlash maqsadida Vazirlar Mahkamasi qaror qilgan.

Bunda quyidagilar:

2019 — 2023-yillarda “Mehribonlik” uylarini noinstitutsonallashtirish dasturi;

Yetim bolalar va ota-ona qaramog`idan mahrum bo`lgan bolalarni oilaga qabul qilayotgan nomzodlarni (fuqarolarni) tanlash, kuzatib borish hamda nazorat qilish tartibi to`g`risidagi nizom tasdiqlangan.

Belgilanganki:

¹ Sh.Vahobov, “Yetim bolalar va ota-ona qaramog`isiz qolgan bolalar” kitobi

2019-yil 1-noyabrdan boshlab yetim bolalar va ota-ona qaramogʻidan mahrum boʻlgan bolalarni oilaga tarbiyaga (patronat) olayotgan yoki oilaviy bolalar uyi tashkil etish orqali qabul qilayotgan nomzod fuqarolarni (keyingi oʻrinlarda tutingan ota-onalar deb ataladi) tayyorlash maqsadida “Mehribonlik” uylari va bolalar shaharchalarida Tutingan ota-onalarni tayyorlash kurslari (keyingi oʻrinlarda Tayyorlov kurslari deb ataladi) tashkil etiladi;

tutingan ota-onalarga Tayyorlov kurslarini tugatganligini tasdiqlovchi hujjat taqdim etiladi;

Tayyorlov kurslari mashgʻulotlarini oʻtkazish uchun tegishli tarmoq vazirliklari, idoralar va tashkilotlarning ijtimoiy ishlar sohasida tutingan ota-onalarni maslahat yordami, ijtimoiy, huquqiy, psixologik-pedagogik, tibbiy jihatdan kompleks qoʻllab-quvvatlashni taʼminlovchi mutaxassislari hamda davlat tarbiya muassasalarining ijtimoiy-psixologik-pedagogik koʻmaklashuv xizmati xodimlari jalb etiladi;

tutingan ota-onalarning Tayyorlov kurslarida oʻqishi bepul tashkil etiladi;

Tayyorlov kurslarining faoliyatini tashkil etish bilan bogʻliq xarajatlar Oʻzbekiston Respublikasi Davlat budjeti mablagʻlari hisobidan qoplanadi;

2020-yil 1-yanvardan boshlab tutingan ota-onalar Tayyorlov kurslarini tamomlaganlik toʻgʻrisidagi hujjati mavjud boʻlgan fuqarolar orasidan tanlanadi;

2020-yil 1-yanvarga qadar bolalarni oilaga tarbiyaga (patronat) olgan va oilaviy bolalar uylarining tarbiyachi ota-onalaridan tayyorlov kurslarini yakunlaganlik toʻgʻrisidagi hujjat talab etilmaydi.

3. Quyidagilar tayyorlov kurslarining asosiy vazifalari etib belgilangan:

tutingan ota-onalarning bolalar psixologiyasi va pedagogikasi sohasidagi bilim va amaliy koʻnikmalarini rivojlantirish;

tutingan ota-onalarni yetim bolalar va ota-ona qaramogʻidan mahrum boʻlgan bolalarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish sohasidagi qonunchilik asoslari bilan tanishtirish;

tutingan ota-onalarning huquq va majburiyatlari bilan tanishtirish;

tutingan ota-onalarni yetim bolalar va ota-ona qaramogʻidan mahrum boʻlgan bolalarni tarbiyalash, parvarish qilish, sogʻligʻini muhofaza qilish, uning ijtimoiylashuvi, taʼlimi va har tomonlama rivojlanishi uchun qulay sharoitlarni yaratish bilan bogʻliq ota-onalik salohiyatini shakllantirish;

tutingan ota-onalarning bolani oilaga qabul qilishga tayyorlik darajasini aniklash, bolani oilaga qabul qilish shaklini tanlashga yordam berish, shuningdek, bolani tarbiyalash va rivojlanishi bilan shugʻullanish jarayonida duch kelishi mumkin boʻlgan muammo va qiyinchiliklarni anglashga koʻmaklashish, ularning bolalar psixologiyasi va pedagogikasi sohasidagi bilim va amaliy koʻnikmalarini rivojlantirish.

4. Tutingan ota-onalarni tayyorlash toʻgʻrisidagi nizomga muvofiq tasdiqlanadi.

5. Oʻzbekiston Respublikasi Xalq taʼlimi vazirligi Respublika bolalar ijtimoiy moslashuvi markazi va Vazirlar Mahkamasi huzuridagi “Oila” ilmiy-amaliy tadqiqot markazi bilan birgalikda 2019-yil 1-oktabrga qadar amalga oshiriladi.

Shuni alohida aytib oʻtish oʻrinliki, yetimlikka nisbatan ilmiy-ommabop atamashunoslikda ishlatiniluvchi soʻzlar va soʻz birikmalari ushbu ijtimoiy hodisaning oʻziga xos jihatlari mavjudligidan darak beradi. Biz ushbu tushunchalar mohiyatini umumlashtirgan holda quyidagi umumlashgan xulosani ilgari suramiz: “Kundalik muloqotda ishlatiniluvchi “chin yetim” bolaning ham otasi ham onasi oʻlganligini anglatadi. Ilmiy atamashunoslikdagi “biologik yetimlik” tushunchasi ham xuddi shu mazmunda ishlatiniluvchi soʻz birikmasi hisoblanadi. Shundan kelib chiqib, ushbu ikki soʻz birikmasi aynan bir ijtimoiy holatni anglatuvchi sinonim soʻzlar boʻlib, mohiyatan ota-onaning oʻlimi bois ulardan ajralib qolgan bolaning turmush tarzini anglatadi va bu qonunchilik boʻyicha toʻgʻridan-toʻgʻri yetim bolalar sanaladi. V.S. Muxina tabiiy kataklizmlar (ofatlar, ocharchlik va boshqalar) va ijtimoiy silkinishlar iqtisodiy-ijtimoiy oʻzgarishlar, oʻtish davri, turli urushlar, millatlaloro ziddiyatlarni biologik yetimlikning sabablari sifatida guruhlaydi. Ular bois,

qochoqlar, majburiy muhojirlar qatlami shakllanadi va ular orasida yetimlar ulushi oshib bormoqda. Xususan, 2015 yilda 244 million xalqaro migrantlar va qochoqlar qayd etilgan bo`lsa, 2050 yilga kelib ushbu raqamlar 321 milliondan oshib ketishi kutilmoqda.

Xulosa: Xulosa qilib aytadigan bo`lsak, yetim va ota-ona qaramog`isiz qolgan bolalar bugungi ko`payib bormoqda. Yetimlik biologik va ijtimoiy yetimlik mavjud bo`lib, biologik yetimlikning iloji yo`q uni oldini olish imkoniyati deyarli yo`q, ammo, ijtimoiy yetimlikni kamaytirish chora-tadbirlarni ko`rish imkoniyati keng yo`lga qo`yilgan. Bunga biz ijtimoiy xodim sifatida ham bunga jon kuydurib borishimiz shart va zarurdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O`zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi
2. Sh.Mirziyoyev. Milliy taraqqiyot yo`limizni qat`iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko`taramiz. Toshkent.2017.
3. Ijtimoiy nazorat darslik Nabiyeu FX
4. kasbiy etika va etiket.
5. « Sh.Vahobov, “Yetim bolalar va ota-ona qaramog`isiz qolgan bolalar” kitobi » nashriyoti Toshkent – 2013
6. Kasb odobi va xizmat ko`rsatish madaniyati: kasb-hunar kollejlari uchun o`quv qo`llanma / Q.M. Abdullayeva,
7. «Faylasuflar» nashriyoti, 2013. – 104 b. I. M.A. Maxsumova II. G.A. Matyakubova.